

## TURKIY DAVLATCHILIK TARIXIDA AMIR TEMURNING O'RNI.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

**Nasullayeva Shahnoza Muxtor qizi**

E-mail: [shahnozanasullayeva0@gmail.com](mailto:shahnozanasullayeva0@gmail.com).

Denov tadbirkorlik va pedagogika inistituti talabasi

**Mamasaidova Ruxshona Qarshi qizi**

E-mail: [ruxshonamamasaidova518@gmail.com](mailto:ruxshonamamasaidova518@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'rta asrlarning yirik turkiy va musulmon davlati hisoblanmish, Temuriylar saltanatining asoschisi, jahon tarixida juda katta nom qoldira olgan buyuk sarkarda, uzoqni ko'ruvchi kuchli siyosatchi, adolatparvar hukmdor, o'z davrining ilm-fan va madaniyat homiysi, nomi butun dunyoga mashhur sohibqiron Amir Temurning hayoti, hukmronlik davri, harbiy san'ati, markazlashgan davlat tuzishi hamda kuchli tafakkur ila davlatni idora etishi, turkiy davlatchilikning rivojiga qo'shgan hissasi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Hoja Ilg'or, Toj ash-sharia, Joku Barlos, Amir Qazog'on, Kesh, Chig'atoy ulusi, Sarbadorlar, Loy janggi, To'xtamishxon, Terek daryosi, Sulton Boyazid, O'tror.

**Аннотация:** В данной статье представлена ценная информация о жизни и правлении великого полководца, основателя Тимуридского государства — крупного тюркского и мусульманского государства Средневековья, обладателя громкого имени в мировой истории, прозорливого и сильного политика, справедливого правителя, покровителя науки и культуры своего времени, известного всему миру как Сахибкиран Амира Темура. Рассматриваются его жизнь, период правления, военное искусство, создание централизованного государства и управление им с мощной мыслью, а также вклад, который он внес в развитие тюркской государственности.

**Ключевые слова:** Ходжа Илгор, Тадж аш-Шариа, Джоку Барлос, Амир Казаган, Кеш, Чагатайский улус, сарбадары, «Битва на глине», Тохтамыш-хан, река Терек, Султан Баязид, Отрар.

**Annotation:** This article provides valuable information on the life and reign of Amir Timur, the founder of the Timurid Empire, a major Turkic and Muslim state of the medieval period. Known worldwide as Sahib Qiran, Timur is remembered in history as a great military leader, a visionary and powerful politician, a just ruler, and a patron of science and culture in his era. The article examines his life, period of rule, military art, establishment of a centralized state, his wise governance, and the significant contribution he made to the development of Turkic statehood.

**Keywords:** Khoja Ilgor, Taj ash-Sharia, Joku Barlos, Amir Qazaghan, Kesh, Chagatai ulus, Sarbadars, "Battle of Clay," Tokhtamysh Khan, Terek River, Sultan Bayezid, Otrar.

**Kirish.** Buyuk sohibqiron Amir Temur ko'hna shahar Shahrizabzga qarashli Xoja ilg'or qishlog'ida 1336-yil 9-aprel kuni tug'ilgan. To'liq ismi Amir Temur ibn Amir Tarag'ay ibn Amir Barqul. Otasi Tarag'ay bahodir Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta nufuzga ega bo'lgan barlos qavmidan chiqqan o'rtahol beklardan bo'lib, Chig'atoy xonlaridan Qozonxon lashkarida xizmat qilardi. Onasi Takina begim ham naslunasab jihatdan aslzodalar jumlasida edi. U Buxorolik mashhur faqih Toj ash-sharia tahallusi bilan nom qozongan Ubaydulla ibn Ma'sudning avlodi edi [1, 5-b.].

Amir Temurning yoshligi ona yurti Keshda kechdi. Yetti yoshga to'lgach, otasi uni madrasaga o'qishga beradi. U yoshlik chog'laridanoq chavandozlik va ovga ishqiboz bo'lib, kamondan nishonga o'q uzish, ot choptirish va turli harbiy o'yinlar bilan mashg'ul bo'lishni yoqtirar edi. Uning atrofida bolalikdagi do'stlari to'planishib, birgalikda mashq qilardilar, musobaqalarda ishtirok etishar, asta-sekin navkar bo'lishib, harbiy guruhga birlashib shakllana borishadi. Amir Temur tabiatan og'ir, bosiq, teran fikrli va idrokli, nihoyatda ziyarak, kishilardagi qobiliyat, fazilat, ayniqsa, samimiyatni tezda fahmlab oladigan inson bo'lgan. Shu tufayli o'spirinlik chog'laridayoq tengqurlaridan sadoqatli do'stlarni atrofiga jalb qila olgan. O'zining ilk harbiy faoliyatini Amir Temur qo'l ostidagi navkarlari bilan

ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan. Ularning o'zaro kurashlarida mahorat va oliyhimmatlik Amir Temurning shuhratini oshirib, uning dong'ini butun Qashqadaryo vodiysi, xususan Kesh viloyatiga yoyilgan. Amir Temur aql-zakovati, shijoati va jasorati to'g'risidagi shuhrat uni Movarounnahrning nufuzli amirlaridan avval Joku Barlos, so'ngra Amir Qazog'on bilan yaqinlashtirgan [2, 25-b.].

**Asosiy qism.** Amir Temurning Movarounnahrni birlashtirish yo'lidagi harakati XIV asrning 60-yillari boshlaridan boshlandi. XIV asrning 50-yillari oxirida Movarounnahrda amirlarning o'zaro kurashi kuchayib, amir Qazog'on o'ldirildi. Oqibatda mamlakatda siyosiy parokandalik vujudga kelib ulus bir qancha mustaqil bekliklarga bo'linib ketadi. Bu davrda Chig'atoy ulusining sharqiy qismi- Yettisuv va Sharqiy Turkistonda hukmronlik qilayotgan mo'g'ul xonlari Movarounnahrdagi og'ir siyosiy vaziyatdan foydalanib, bu yerda o'z hokimiyatini o'rnatishga harakat qiladilar. Jeta xonlaridan Tug'luq Temur va uning o'g'li Ilyosxo'ja 1361-1361 va 1365-yillarda Movarounnahrda bir necha bor bostirib kiradilar. Biroq Movarounnahr aholisi mo'g'ullarga qarshi kurashga jur'at eta olmaydilar. Kesh viloyatining hukmdori Hoji Barlos Xurosonga qochadi. Mana shunday og'ir pallada Amir Temur siyosat maydoniga chiqadi.

Amir Temur Kesh viloyatining dorug'asi etib tayinlangandan so'ng, mo'g'ullarga qarshi kurashni boshlab yuboradi. Ilyosxo'ja va Amir Temur o'rtasidagi eng muhim jang 1365-yili bahorida Toshkent va Chinoz o'rtasida sodir bo'ladi. Tarixda Loy janggi deya etirof etiladigan ushbu to'qnashuvda amir Husaynning xiyonati oqibatida Amir Temur qo'shinlari mag'lubiyatga uchraydi. Samarqandni o'z qo'lga olgan mo'g'ullarga qarshi xalq ko'tarilib, shahar mudofasini qo'lga olgan sarbadorlar mo'g'ullarni mamlakatdan butunlay haydab chiqaradi. Bundan xabar topgan amir Husayn sarbadorlar boshliqlarini qatl ettirib, Movarounnahrdagi hokimiyatni egallaydi.

Natijada amir Husayn va Amir Temur o'rtasidagi munosabat keskinlashib ochiqdan-ochiq nizoga aylanadi. Ular o'rtasida 1366-1370- yillarda bir necha bor to'qnashuvlar bo'lib o'tadi. Nihoyat 1370-yil 10-aprelda Balx shahri Amir Temurga taslim bo'ladi, Amir Husayn esa qatl etiladi. Temurbek qasd qilgan yumushni nihoyasiga yetkazishda unga tayanch va suyanch bo'lishni ahd qilgan, shodlik onlarini yoki zahmat azoblarini u bilan

baham ko'rishga, og'ir daqiqalarda undan yuz o'girmaslikka qasamyod qilgan birodarlarining beg'araz ko'magi va ayniqsa, mo'g'ul bosqinchilari zulmidan aziyat chekkan Movarounnahr xalqi barcha tabaqalarining qo'llab-quvvatlashi hamda bevosita ishtirokida 1370-yili hokimiyatni qo'lga olish, mamlakatni birlashtirish, istiqlolni qayta tiklash baxtiga muyassar bo'ladi.[3, 7-b.] Amir Temur taxtga o'tirgach, birinchi harakatni mo'g'ul istilochilaridan ozod qilib, mustaqil markazlashgan davlatni barpo qilishga qaratadi. Mazkur davrda Amir Temurning dono va irodali hukmdor, uzoqni ko'zlovchi davlat arbobi ekanligi yaqqol namoyon bo'la boshladi. Murakkab va ziddiyatli davrda Amir Temur Movarounnahrda birlashtirish siyosatini boshlagan edi. U Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida turgan yerlarni o'ziga bo'ysundirib, itoat ettirdi. Farg'ona, Shosh viloyatlarini o'z tasarrufiga kiritish unga qiyin bo'lmadi. Sirdaryoning quyi oqimidagi Oltin O'rdaga qarashli yerlarni egallashda u bu yerlardagi ichki sulolaviy urushlardan foydalandi [4, 336-b.]. Amir Temur Xorazmni ham qaytadan Movarounnahrda kiritishga intildi. U 1372-yildan boshlab Xorazmga besh marta harbiy yurish qildi va 1388-yilda uzilkesil bo'ysundirdi. 1381-yilda Hirot, Seiston, Mozandaron egallandi. Shundan so'ng Saraxs, Jom, Qavsiya, Sabzavor shaharlari jangsiz Amir Temurga bo'ysundi va uning tasarrufiga o'tdi. Shunday qilib, Amir Temur Movarounnahr, Xuroson va Xorazmni birlashtirib, yirik markazlashgan davlat tuzdi [5, 115-b].

Amir Temurning har bir harbiy yurishiga turtki bo'larlik sabab bor edi. Amir Temur yordamida Oltin O'rda taxtini egallagan To'xtamishxon tez orada xoinlik yo'liga kiradi. U Amir Temurga qarshi ochiqdan-ochiq kurashga o'tadi. Natijada Amir Temur To'xtamishga qarshi uch marta qo'shin tortishga majbur bo'ladi. So'nggi shiddatli jang 1395-yil 15-aprelida Shimoliy Kavkazda Terek daryosi bo'yida sodir bo'lib, To'xtamishxon mag'lubiyatga uchraydi. Ayni paytda Amir Temur 1395-1396-yillarda Oltin O'rda ustidan galaba qozongandan keyin yana Kavkazni egallab, Kichik Osiyo bilan yaqinlashdi [6, 126-b].

Amir Temur o'z saltanatining janubiy chegaralarini mustahkamlash va kengaytirish maqsadida Eron, Ozarbayjon, Iroq, Shom ustiga uch marta askar tortadi. Amir Temur o'z ixtiyori bilan taslim bo'lib, moli omon to'lagan shaharlarga tegmagan, qo'shinlarni bunday

shaharlarga kiritmagan. 1398-1399-yillarda Hindistonga yurish qiladi va Dehlini egallaydi. Keng ko'lamli harbiy yurishlar natijasida Sohibqiron Amir Temur saltanatining chegarasi Usmonli turklar davlati chegarasiga borib taqaladi. 1402-yil bahoriga kelib, Qora Yusuf Turkman tufayli sulton Boyazid bilan Amir Temur orasidagi munosabat yanada og'irlasha boradi. Amir Temur sulton Boyazidga maktub yuboradi. Oradan ikki oy o'tsa-da, javob kelmaydi. Shunda Amir Temur hujumga o'tishga qaror qildi. Sulton Boyazid ustidan g'alabaga Anqara yonida 1402-yil 20-iyulida erishildi. Usmoniylar mag'lubiyati Yevropa xalqlari uchun ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi. Turklar Yevropaga o'z hujumlarini 50 yil orqaga surdilar.

Amir Temur o'z qo'shinlari bilan 1404-yilning oxirida Xitoyga qarab yo'lga chiqadi. O'sha yili qish O'rta Osiyo tarixida eng qahraton qishlaridan biri bo'lgan. Sirdaryoning suvi 1 metr muzlagan, askarlardan ko'pini quloq-burunlari, qo'li-oyoqlarini sovuq olgan edi. Amir Temurning o'zi ham ko'p o'tmay shamollab qoladi. 1405-yil yanvar oyida O'trorda to'xtashga qaror qilishadi va bu yerda 18-fevral kuni buyuk jaxongir vafot etdi. Amir Temur 35 yil hukmronligi davomida ko'plab harbiy yurishlar qildi. Bu yurishlar natijasida u buyuk saltanat barpo qilishga erishdi. Uning tarkibiga Movarounnahr, Xorazm, Kaspiy atrofidagi viloyatlar, hozirgi Afg'oniston, Eron, Turkiya, Hindiston, Iroq, Janubiy Rossiya, Kavkaz va G'arbiy Osiyoning bir qator mamlakatlari jami 27 ta o'lka kiradi. [7, 339-b]

Amir Temurning muvaffaqiyatiga avvalo uning nodir harbiy iste'dodi sabab bo'ldi. Uning qo'shinida qat'iy tartib va intizom o'rnatilgan edi. Taktika jihatdan Temurbek armiyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega edi. Qo'shinning tuzilishi Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Chingiziylar qo'shini jangovar tartibidan farqli o'laroq, yetti qism- qo'lga ajratilgan, razvedka a'lo darajada yo'lga qo'yilgan, qismlarning jang maydonida hamda yurish vaqtida talab darajasida harakat qilishi uchun zarur tadbir va rejalar ishlab chiqilgan, ularni jang paytida operativ boshqarishga alohida e'tibor qaratilgan. [8, 234-b] Amir Temurning shaxsan o'zi qo'shindagi o'nlik, yuzlik, minglik va tuman qo'mondonlarini tanlashga rahbarlik qilgan. Amir Temur qo'shini otliq va piyoda qismlardan iborat edi. Tarixiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda

otliq askarlar Temurbek armiyasining zarbdor qismi hisoblangan, ular og'ir va yengil qurollar bilan qurollangan suvoriy guruhlariga bo'lingan. [ 9, 52-53-b] Amir Temur qo'shinining holati, jangovar tartibi Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiy asarlarida mufassal tasvirlangan. Amir Temurning kuchli markazlashgan davlat tuzishida albatta uning harbiy salohiyati ham katta ta'sir ko'rsatgan.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, Amir Temur va Temuriylar hukmronligi davri o'zbek davlatchilik tarixining eng zarhal harflar bilan bitilgan o'chmas sahifalaridir. Amir Temur Ko'ragoniy turkiy xalqlarni birlashtirib, yirik imperiya tuzishdek o'ta ma'suliyatli vazifani uddalashda tinmay harakatda bo'lgan. Sohibqiron tomonidan asos solingan markazlashgan davlat nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va madaniy jihatdan ham o'z davrining eng taraqqiy etgan davlatiga aylangan edi. Amir Temur buyuk saltanatining ichki va tashqi siyosatini qadimiy tajribalardan ijobiy foydalangan holda amalga oshirish, harbiy siyosatni zamon talabi asosida takomillashtirib, mo'g'ul istilosi asoratlarini tezroq bartaraf etish, xo'jalikni oyoqqa turg'izish, savdo-sotiqni bir me'yorga tushirish va rivojlantirish, aholi manfaatlarini har tomonlama himoya qilish, ilm-fan, madaniyat, me'morchilik, obodonlashtirish kabi muhim vazifalarni katta kuch-g'ayrat, mablag, bilim va oqilona tadbirlar orqali amalga oshirdi va o'z nomini abadiyatga muhrladi.

### **Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.Bo'riboy Ahmedov. Amir Temur darslari. SHARQ nashriyoti. Toshkent-2001.
2. Farhod Sulstonov. Farruh Bozorboyev. O'zbekiston hukmdorlari. Toshkent-2007.
- 3.Hamidulla Dadaboyev. Amir Temurning harbiy mahorati. Yozuvchi nashriyoti. Toshkent-1996.
4. Eshov B.J., Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. Toshkent-2014.
5. Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi. Toshkent-2017.
6. Saidosimov S., Ahmedov A., Ahmedov B. Amir Temur Jahon tarixida. SHARQ nashriyoti. Toshkent-2001.
7. B.J.Eshov, A.A.Odilov. O'zbekiston tarixi. Toshkent-2014.
8. Razin. E. A. История военного искусства. М-1957.

9. Уложение Тимура. Казань, 1894.

10. Shohistaxon O'ljayeva. Amir Temur davlat boshqaruvi. "Akademnashr" Toshkent-2017.

11. Turg'un Fayziyev. Temuriylar shajarasi. Toshkent-1995.